

Jonbek BOYSUNOV,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: jonbekb@mail.ru

Falsafa fanlari doktori, dotsent T.Islomov taqrizi asosida

PROBLEMS IN THE SPIRITUAL CULTURE OF YOUNG PEOPLE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Annotation

This article discusses how to protect the spiritual culture of young people from various threats in the context of globalization, how to preserve the mentality of the nation, how to be aware of threats under the guise of democracy and the influence of ideas alien to various values.

Key words: Youth, spirituality, culture, globalization, threat, patriotism, value, nation, race, nihilism.

ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается, как защитить духовную культуру молодежи от различных угроз в условиях глобализации, как сохранить менталитет нации, как осознавать угрозы под маской демократии и влияния идей, чуждых различным ценностям.

Ключевые слова: Молодежь, духовность, культура, глобализация, угроза, патриотизм, ценности, нация, раса, нигилизм.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATIDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Mazkur maqlolada yoshlar ma'naviy madaniyatini globallashuv sharoitida turli tahdidlardan asrash, millatning mentalitetini saqlab qolish, demokratiya niqobidagi tahdidlar va har xil qadriyatlarga yot bo'lgan g'oyalar ta'sirdan ogoh bo'lish haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviyat, madaniyat, globallashuv, tahdid, vatanparvarlik, qadriyat, millat, irq, nigelizm.

Kirish. Jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar mohiyati borliqning tabiiy-ilmiy manzarasini o'zgartirish bilan bir qatorda turli g'oyaviy kurashlar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning yangicha ko'rinishlarini namoyon etib kelmoqda. Bunday faoliyat natijasida insoniyatning oldida o'zi anglab yetmagan muammolarning paydo bo'lishi evaziga ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish zamон talabiga aylanib ulgurdi. Jamiyatdagi ma'naviy islohotlar negizida yoshlarning axloqiy ideallarini zamон bilan hamnafas bo'lishini ta'minlash, eskicha tafakkur tarzidan voz kechish, ma'naviy madaniyat rivojiga xizmat qiladigan integral yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, "milliy madaniyat, qadriyat va meyorlar inson ongi va dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'yaydi"[1]. Bundan ko'rindiki, ma'naviyat sohasidagi islohotlarda har bir davlat, yoxud xalq va millatning qadriyatlari hamisha muhim ahamiyatga yega sanaladi.

Globallashuvning tezlashib borishi madaniyalar to'qnashuvida ham o'ziga xos burilish pallasiga kirdi. Ayniqsa, yoshlarning ma'naviy madaniyatga bo'lgan intilishlari va qiziqishlari doirasida zamonaviy ilm-fanning yutuqlari bilan parallel madaniyat turlarini keng ko'lamda o'rganish, ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish lozim. Bunday samarali faoliyat yoshlarning ma'naviy madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiladi. "Jamiyatda yoshlarni axloqiy va falsafiy tafakkurni kuchaytirish, yuksak axloqli avlodni tarbiyalashda tarixiy jarayonda shakllangan qadriyatlarni zamonavylashtirish dolzarb bo'lmoqda"[2]. Bundan ko'rindiki, yoshlar hamisha o'z faol faoliyatlari doirasida kafolatgangan va muvaffaqiyatga chorlaydigan innovatsiyalari sari intilmoqdalar.

Globallashuvning mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, olimlar uni universal, milliy chegaraning yuvilib ketishi, dunyoning gomogenlashuvi va universallaushi (B.Bandi), hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi (I.Karimov), inson aql-zakovati, iqtidori va tinmay amalga oshirgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar ta'sirida harakat qilayotgan muhit (S.Otamurodov) ekanligini ta'riflashadi. Globallashuvuga berilayotgan mazkur ta'riflar bevosita bugungi kunda jahonda amalga oshirilayotgan islohotlarda keng namoyon bo'layotganligi, har bir davlat o'z taraqqiyotida yangicha tafakkur tarzini aks ettirayotganligini ko'rsatib bermoqda. Shuning uchun ham har bir o'sib kelayotgan yosh avlod bu tushunchaning mohiyatini teran anglagan holda o'zining hayot yo'lini to'g'ri tanlashga intilishi, "yetti o'lchab bir kes" maqoli bilan ish ko'rishi maqsadga muvoqfiq sanaladi. Bugungi kunda inson qalbi va ongi uchun kurashning yangi usul va vositalari ko'payib bormoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarida dindan niqb sifatida foydalanimishga urinishlar rivojlanib borayotgani tashvishli hol. Natijada uzoq yillar davomida tinch-osuda rivijlanish yo'lida bo'lgan jamiyatlar parokonda bo'lib, aholi va yoshlar urushlar girdobida qolib ketmoqda. Bunda har bir xalqning bosib o'tgan tadrijiy taraqqiyot yo'lidagi yutuq va kamchiliklarni o'rganib, ularning qadimdan shakllanib kelgan ma'naviy madaniyatni, jamladan, an'analarli, urf-odatlari, milliy qadriyatlari, bugungi yoshlarning zamonaviy ehtiyojlarini hisobga olmoqda. Ayniqsa, yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jahondagi innovatsion g'oyalarni turli modellarga monand tarzda amalga oshirib, dunyoning ma'naviy qiyofasini o'zgartiradigan ijtimoiy maklonni yaratmoqda.

Ma'naviyat har bir davrda xalqning irodasi, kuch-qudrati manbai sifatida odamlarni birlashtirishga, yangi g'oyalar olamida o'zligini anglashga keng yo'l ochib kelgan. Chunki "ma'naviyat millati, irqi, tili, urf-odati, an'ana va qadriyatlari turlituman bo'lgan insonlarni birlashtiradi va jamiyatda barqarorlikning amal qilishiga ijobjiy ta'sir o'tkazadi"[3]. Mazkur faoliyat natijasida yoshlarning turli millat vakillari bilan o'zaro aloqalari mustahkamlanib, o'ziga xos ma'naviy madaniyatning elementlari yangilanishlar tomon yuz tutadi.

Jamiyatdagi yangilanish jarayonlarida yoshlarning individual faoliyat, tabiiy ehtiyojlardan kelib chiqib o'z erkinliklarni namoyon etishi ijtimoiy taraqqiyotga ijobjiy xizmat qiladi. Bu yo'ldan to'g'ri borish esa har bir fuqaroning faolligi, mas'uliyat bilan o'z qarashlarini namoyon qilishiga olib keladi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, an'anaviy boshqaruv tizimidagi munosabatlarni meyoriy-huquqiy normalar asosida tadrijiy rivojlanishini ta'minlash zamон talabidir. Jamiyatda mavjud muammolarni davlat islohotchiligi asosida yoshlarning manfaatlari yo'lida tizimli amalga oshirish, har bir sohada yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash har bir davlat rivojida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda "globallashuv shunday ziddiyatlari voqelikki, , davlatlar o'rtasidagi integratsion aloqalarni kengaytirish, milliy madaniyatning siqib chiqarilishi, etnomadaniy

tajribalarni mensimaslik yoki nigelistcha rad etish, OAV lari orqali gegemonizmni targ‘ib etish kabilar uchraydi”[4]. Shuning uchun yoshlardan madaniyatini globallashuv sharoitida turli tahdidlardan asrash, millatning mentalitetini saqlab qolish, demokratiya niqobidagi tahdidlardan asrash, har xil qadriyatlarga yot bo‘lgan g‘oyalar ta’sirdan ogoh bo‘lish dolzarb masaladir.

Global jarayonlardagi o‘zgarishlar insonlarni bir-birlari bilan yaqindan tanishishga, turli insoniy fazilatlarni texnikaga bog‘lashga intilayotgan bir davrda, yoshlarda mas’uliyat hissini oshirish, o‘zini-o‘zi tutishni o‘rgatish kabi axloqiy xislatlarni shakllantirish lozim. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarining mohiyatini bevosita innovatsion muhitni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va ularning vogelikka amal qilishini ta’minlashdir. Bugungi innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yishda tarixiy bosqichlarga ham e’tiborni qaratish foydadan xoli bo‘lmaydi. Bunda yoshlardan madaniyatini va madaniy an‘analarga zavqli munosabatni saqlab qolish lozim.

XX asrda Yevropa davlatlarida ma’naviy madaniyat va milliylik hisobga olinmagan holda siyosiy yo‘llar orqali hokimiyatga ta’sir ko‘rsatish, xalqlarning madaniy an‘analarini yo‘qotishga urunishlar vujudga keldi. Ayrim etnik guruuhlar o‘z manfaatlari yo‘lida jamoatchilik nazoratiga bog‘liq masalalarni qonunchilik tashabbusi bilan emas, balki millatlar ma’naviyatini o‘zgartirish yo‘li bilan yechishga intildilar. Bunday dunyoqarash sobiq ittifoq davlatida keng tarzda amal qildi. Jamiyatda “ular tomonidan ishlab chiqilgan milliy ma’naviyatlarni bir qolingga solishga xizmat qiluvchi shaklan “milliy”, mazmunan “sotsialistik” ma’naviyatni shakllantirish to‘g‘risidagi g‘ayriilmiy nazariyada o‘z ifodasini topdi”[5]. Natijada ijtimoiy muhitda pozitivizmga nisbatan mexanistik jarayonlar kuchayib, jamiyatning yoshlardan madaniyatidagi bilimlar tizimiga empirik bilimlar joriy etildi. Turli xalqlar mentaliteti, milliy xarakteri, etnik guruuhlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni milliy urf-odatlar, an‘analar, turmush tarzidagi an‘anaviylik ko‘rinishlari zamonaviylikka moslashtirildi.

XXI asrda kelib jahondagi davlatlarning ikki qutbli dunyodan ko‘p qutbli ko‘rinishga o‘tishi globallashuvning o‘ziga xos ma’naviy jihatlariga ta’sirini o‘tkazdi. Natijada odamlar o‘rtasida globallashuvga bo‘lgan ehtiyoj tezlasha borib, yangicha mafkuraviy munosabatlar vujudga keldi. Madaniy hayotda shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar bevosita yangicha g‘oya va dasturlar asosida ma’naviy dunyodagi turli xil xalqlarni birlashtirishga, odamlar o‘rtasidagi farqlarni ajratmaslikka chorlay boshladi. “Agar biz milliy g‘oyamizga zid bo‘lgan mana shunday xavf-xatarlardan farzandlarimizni asray olmasak, oxir-oqibatda o‘zligimizni, har qanday millatni millat, xalqni xalq qiladigan an‘ana va qadriyatlarimizni yo‘qotishimiz mumkin”[6]. Ko‘rinib turibdiki, yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, fidoyi, farosatlari, vijdonli va yuksak aql-sohibi qilib kamol toptirish har birimiz uchun foydadan xoli bo‘lmaydi. Biz bugun “axborotlashgan jamiyat falsafasi bilan yaqindan tanishish va unga munosabat bildira olish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida uni yangicha idrok etishni tqozo qiladigan davrda yashayapmiz”[7]. Shuning uchun yoshlardan madaniyatida milliy qadriyatlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Jamiyatda yoshlardan madaniyatini rivojlantirishda har bir davlat o‘zining usullari va falsafiy mazmunga ega umumiyligi yoki milliy standartlaridan kelib chiqqan holda muayyan hududda yashovchi xalqlarning ma’naviyatini o‘zlashtiradi. Har bir davrda muayyan etnik guruuhlar o‘zlarining mavjudligini saqlab qolish uchun o‘sib kelayotgan yoshlardan madaniyatida ba’zi bir tarixan shakllangan madaniy meyorlar va atributlarni rivojlantirishga harakat qiladi.

“Hozirgi paytda jahondagi ayrim siyosiy kuchlar o‘zbek xalqiga millatchilik g‘oyalarini singdirishga ham intilmoqdalar. Globallashuv jarayoni umuminsoniy qadriyatlar, an‘analar va urf-odatlarga tahdid solayotgani rost. Jahan siyosiy olamidagi ayrim kuchlar ushbu faktidan ham o‘z g‘arazli yo‘llarida foydalanmoqdalar”[8]. Bu esa, har bir fuqaroden doimo ogoh bo‘lishni, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod tasavvurlarida turli yot g‘oyalarning o‘rnashib olishidan boxabar bo‘lishni, milliy mentalitet va falsafiy dunyoqarash asosida faoliyat olib borishni talab etadi.

Globallashuv jarayonlarida aholi fikrini chalg‘itadigan axborotlarni oldini olishga qodir innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkun:

- globallashuv jarayonida har qanday salbiy axborotlarga qarshi o‘z vaqtida aniq javob berish va uning yechimini ko‘rsatish maqsadga muvofiqidir;

jamiatda yoshlarning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishlari qatorida ma’naviy madaniyatni ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, yoshlardan madaniyatida keng miyosda targ‘ib qilib borish;

davr ruhiyati va mafkurasining mohiyatiga mos tushadigan plyuralistik g‘oyalar tizimini ishlab chiqish;

- yoshlardan madaniyatidagi o‘zgarishlarni iqtisodiyot bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarning xizmatlar bozoriga kirib borishida madaniyatli, ma‘rifatli bo‘lishini ta’minlash;

- yoshlarda globallashuvga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish orqali yuksak ma’naviyatlari va innovatsion g‘oyalar generatori bo‘lgan kadrlarni tayyorlash dolzarb sanaladi.

Globallashuv insonlarni hayotning achchiq-chuchuklariga sarb-toqat va matonatli bo‘lishga, axborot maydonidagi ogohlilikka chorlamoqda. “Xalqimizning necha asrlik ma’naviy-ma‘rifiy an‘analar, milliy urf-odatlari va qadriyatlarini namoyish etib qolmasdan, ijtimoiy makondagi yutuqlarini jahona ko‘rsatishlari uchun barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanishlari, yoshlarni ziyrak, aql-farosatlari, dono, ilm-ma‘rifati”[9] bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu esa, yoshlarning jamiyat rivojida yanadafaol, voqelikka nisbatan sergak va fidoyi bo‘lib mehnat qilishlari uchun zamin hozirlaydi.

Yangi O‘zbekistonidagi islohotlarni amalga oshirishda ta’lim tizimining rolini innovatsion g‘oyalar bilan kuchaytirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bunda har bir murabbiy yoki o‘qituvchining malaka va ko‘nikmalarini oshirish, jahon standartlariga mos dunyoqarashni shakllantirishda mahoratlarni oshirish lozim. Ayniqsa, bugungi kun vogeligi yoshlarnimizdan noan‘anaviy usullardan ko‘proq foydalanishni talab eta boshladi. “Hozirgi globallashuv jarayonida tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiha nisbatan bunday an‘anaviy yondashuvlardan voz kechish maqsadga muvofiqidir. Tayyor ssenarii asosida biron-bir tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy subyektlari bo‘lgan o‘quvchilar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi”[10]. Shuning uchun ham yoshlarning tarbiyaviy faoliyatida ma’naviy madaniyat unsurlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqidir. Bu esa, ularning ajdodlar merosiga ixlosmandlik tuyg‘ulari kamol topishiga, ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarzining shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlarida yoshlarda ma’naviy madaniyatni rovojlantirishga doir quyidagi xulosalarga kelish joiz:

Bu globallashuv sharoitida ularning falsafiy va mantiqiy tafakkur tarzini kuchaytirish, ilmiy asoslangan ma’naviy merosdan ozuqa oladigan avlod sifatida shakllanishiga keng imkoniyatlardan yaratish davri keldi.

2. Bugungi yoshlardan kechagi tubdan farq qilib, ularning g‘oyalarida innovatsiyalar olami, eng so‘nggi davrning texnologiyalari va plyuralistik tafakkurni egallagan qarashlarni ilgari surmoqdalar.

3. Globallashuv bugungi kunda yoshlardan madaniyatiga munozaralari tarzda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Natijada, ko‘plab ommaviy axborot vositalarida bu boradagi global muammolar tahlili, yechimiga doir qarashlar ko‘paymoqda. Qolaversa,

yoshlar ma'naviyati va madaniyatiga salbiy ta'sirga ega musiqalar, turli jangari va behayo filmlarning ta'siri, ko'ngilochar ko'rinishdagi dasturlar ko'payishi yoshlarning dunyo global muhitiga moslashishiga olib kelmoqda. Mana shunday dunyoqarashdan yoshlarni asrashimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Маматкулов С. Глобаллашув ва инсон ижтимоий-маънавий қиёфасининг трансформациялашуви. Imam Buxoriy saboqlari журнали. –Самарқанд: 2019 йил 1-сон, -Б. 83.
2. Яхяева С. Соғлом авлод эстетик маданиятини модернизациялашда миллӣ қадриятларнинг ўрни. O'zbekiston milliy univertiteti xabarlari. –Тошкент: 2020 йил 1/1-сон. –Б. 193.
3. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: O'zbekiston, 2018. –Б. 172.
4. Корабаева Д.Д. Глобаллашув зиддиятлари ва тарихий-маданий меросни асраш масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ журнали, -Тошкент: 2020. 3-сон, -Б. 110.
5. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллӣ-маънавий ҳаҷафасизлик. –Тошкент: O'zbekiston, 2013. –Б. 249.
6. Эркин ва фаровон ҳаётни юксак маънавиятсиз қуриб бўлмайди. –Тошкент: O'zbekiston, 2006. –Б. 28.
7. Муитов Д. Аҳборотлашган жамият хусусиятлари. –Тошкент: Маънавият. 2015. 17-бет.
8. Сафаева С. Глобаллашув жараёнининг ижтимоий ҳаёт соҳаларига таъсири // Глобаллашув жараённанда жамиятни демократлаширишнинг сиёсий, фалсафий-ҳуқуқий масалалари. -Тошкент: 2006. –Б. 26.
9. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 93.
10. Кушанова Д. Тарбия жараённанда замонавий ёндашувлардан фойдаланиш // Ижтимоий фанларни ўқитишнинг долзарб масалалари: муаммолар, ечимлар ва истиқболдаги режалар. –Самарқанд: 2017. –Б. 68.